



**“TASDIQLAYMAN”**  
**Buxoro davlat universiteti**  
**rektori \_\_\_\_\_ O.X. Xamidov**  
**2023-yil «29» noyabr**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING 2023/2024 O‘QUV YILI**  
**4 - YIG‘ILISH QARORLARI**

**2023-yil «29» noyabr**

**Soat 08:30**

- Raislik qiluvchi:** – O.X. Xamidov – Buxoro davlat universiteti rektori, kengash raisi
- Qatnashdilar:** – Prorektorlar, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va bo‘lim boshliqlari (ro‘yxat bo‘yicha)

**KUN TARTIBI:**

**I. Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar to‘g‘risida**  
**Kengash raisi- Xamidov Obidjon Xafizovich**

**Eshitildi:**O.X. Xamidov (Kengash raisi) kengash a‘zolariga “Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar to‘g‘risida” taklif va tavsiyalar berdi.

Berilgan taklif va tavsiyalar asosida kengash a‘zolari o‘z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

**Ushbu masala bo‘yicha kengash qaror qiladi:**

- 1. Universitetda tashkil etiladigan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar sifati yanada oshirish maqsadida aniq rejalar asosida oylik chora-tadbirlar ishlab chiqilsin. (Ma’sullar: A.A.Amonov, R.A.Karimov, dekan o‘rinbosarlari, muddat: 4.12.2023y)**
- 2. Universitetda barcha pedagog xodimlarning “Moliyaviy savodxonlik” kompetentligini oshirish chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin. (Ma’sullar: O‘.U.Rashidov, B.B. Adizov, bo‘lim boshliqlari, muddat: 15.12.2023y)**
- 3. Fakultetlarda o‘quv, ma‘naviy-ma‘rifiy, ilmiy-tadqiqot, moddiy texnik baza va xalqaro hamkorlik bo‘yicha faoliyatini o‘rganish holati bo‘yicha taqdim etilayotgan ma‘lumotlar fakultetlarda sifatli tahlil qilingan holda kengashga olib chiqilishiga jiddiy e‘tibor qaratilsin. (Ma’sullar: R.G. Jumayev, M.A.Tursunov, Z.S.Nurov, fakultet dekanlari, muddat: 4.12.2023y)**

---

**I.I. 8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi kuni munosabati bilan universitet**  
**miqyosida amalga oshiriladigan ishlar to‘g‘risida**  
**Karimov Rustam Abdurasulovich**

**Eshitildi: R.A.Karimov (Yoshlarni ma'naviy yuksalishiga ko'maklashish departamenti boshlig'i) kengash a'zolariga "8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi kuni munosabati bilan universitet miqyosida amalga oshiriladigan ishlar to'g'risida" axborot berdi. (ma'lumotnoma ilova qilinadi)**

Yuqoridagi masalalar bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari eshitildi.

Ushbu masala bo'yicha kengash qaror qiladi:

1. Yoshlarni ma'naviy yuksalishiga ko'maklashish departamenti boshlig'i R.Karimovning 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi kuni munosabati bilan universitet miqyosida amalga oshiriladigan ishlar to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitet faollar zalida huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari, huquqshunos olimlar ishtirokida "Konstitutsiyani o'rganamiz" mavzusida huquqiy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilsin (mas'ul: R.Jumayev, A.Karimov, A.Boltayev).

3. Barcha fakultetlarda huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari, huquqshunos olimlar ishtirokida "Konstitutsiyani o'rganamiz", "Konstitutsiya – adolat tantanasi" mavzularida uchrashuv, ochiq muloqotlar, huquqiy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilsin (mas'ul: dekanlar. Dekan o'rinbosarlari, tyutorlar).

4. Universitetda amalga oshiriladigan tadbirlar #Mening konstitusiyam, #Konstitutsiya kuni xeshteglari ostida ma'lumotlar e'lon qilinsin (mas'ul: Matbuot kotibi).

5. "Yurisprudensiya" ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talaba-yoshlar va pedagog-xodimlar ishtirokida "Zakovat" intellektual turnirini tashkil etilsin (mas'ul: A.Boltayev, F.Karimov).

6. "Yurisprudensiya" ta'lim yo'nalishi talabalari jamoasidan "Konstitutsiya targ'ibotchilari" gurihini tuzilsin va viloyat OTM larida konstitutsiya targ'ibotlari amalga oshirilsin. (mas'ul: A.Boltayev, F.Karimov, muddat: 1-dekabr).

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

## **II. Universitetda O'quv jarayonining borishi, kechki ta'limda YaDA va talabalarni qishki ta'tilga yuborish to'g'risida Jumayev Rustam Ganiyevich**

**Eshitildi: R.G.Jumayev (O'quv ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga "O'quv jarayonining borishi, kechki ta'limda YaDAni tashkil etish va talabalarni qishki ta'tilga yuborish to'g'risida" axborot berdi. (ma'lumotnoma ilova qilinadi)**

Yuqoridagi masalalar bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari eshitildi.

Ushbu masala bo'yicha kengash qaror qiladi:

1. O'quv jarayon jadvaliga muvofiq qishki ta'til muddati 2023-yilning 25-dekabridan 2024-yilning 7-yanvariga qadar etib belgilansin.

2. 2023/2024 o'quv yili kuzgi jarayoni bo'yicha yakuniy nazorat ishlarini talab darajasida tashkil etish va shaffofligi ta'minlansin va fanlar bo'yicha maslahat soatlari tashkil etilsin (mas'ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari).

3. 2023-yil 25-dekabrden boshlab har kuni talabalarni doimiy yashash joyiga xavfsiz yetib borishlari va qishki ta'til davridagi faoliyatini qat'iy ravishda monitoringi amalga oshirilsin hamda kunlik ma'lumotlar universitet Bosh Shtabiga taqdim etilsin (mas'ul: R.Karimov, fakultet dekanlari).

4. Universitet rahbariyati va professor-o'qituvchilari uchun xorijiy hamkorlar va malaka oshirishning yetakchi professorlarini jalb etilgan holda 2023-yil 25-dekabr-2024-yil 6-yanvar kunlari 2 hafta muddatda seminar-treninglar o'tkazilsin (mas'ul: M.Tursunov, Z. Nurov).

5. 2023/2024 o'quv yili kuzgi jarayonda Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) va Filologiya va tillarni o'qitish: Ingliz tili kechki ta'lim shakli bitiruvchi talabalar uchun maslahat soatlari tashkil etilsin va yakuniy davlat attestatsiyasi Nizom talablari asosida o'tkazilsin (mas'ul: M.Tursunov, D.Yavmutov, N.Ataboyev).

6. Ushbu qarorning ijrosi nazoratini o'quv ishlar bo'yicha prorektor R.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

### **III. 2024-yil uchun tayanch doktorantura (PhD) va doktoranturaga (DSc) qabul qilish hamda 2023-yil 4-chorak uchun mustaqil izlanuvchilikka (PhD/DSc) qabul qilish to'g'risida Rasulov To'liqin Husenovich**

**Eshitildi: T.H.Rasulov** (Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga "Buxoro davlat universitetida 2024-yil uchun davlat byudjeti mablag'lari hisobidan Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga qabul natijalari to'g'risida" axborot berdi. (ma'lumotnoma ilova qilinadi)

Yuqoridagi masalalar bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari eshitildi.

Ushbu masala bo'yicha kengash qaror qiladi:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H. Rasulovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kirish imtihonlari va suhbat jarayonlari natijalari bo'yicha 2023-yilning 5-dekabr kuniga qadar yuqori ball olgan talabgorlarni oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga qabul qilish yuzasidan ichki buyruq ishlab chiqilishi ta'minlansin.

3. Kirish imtihonlari va suhbat jarayonlari natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga taqdim etilsin.

4. Doktorantlarning ular birlashtirilgan kafedralarda tashkil qilingan ilmiy va uslubiy seminarlarda hamda ilmiy faoliyatda oid o'quv kurslarda muntazam ishtiroki ta'minlansin.

5. Ushbu qarorning ijro nazorati ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H. Rasulov zimmasiga yuklatilsin.

### **IV Universitetning 2023-yilgi xarajatlar smetasida belgilangan mablag'larning ijrosi hamda 2024-yilgi xarajatlar smetasini shakllantirish bo'yicha amalga oshiriladigan vazifalar to'g'risida Rashidov O'lmasjon Umarovich**

**Eshitildi: O'.U.Rashidov** (Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga "Universitetning 2023-yilgi xarajatlar smetasida belgilangan mablag'larning ijrosi hamda 2024-yilgi xarajatlar smetasini shakllantirish bo'yicha

amalgaga oshiriladigan vazifalar to'g'risida" axborot berdi. (ma'lumotnoma ilova qilinadi)

Yuqoridagi masalalar bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari eshitildi.

Ushbu masala bo'yicha kengash qaror qiladi:

1. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O'.Rashidovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023-yilgi xarajatlar smetasi yakuniy ijrosi bo'yicha navbatdagi ilmiy kengashga kengaytirilgan hisobot taqdim etish.

3. Talabalar tomonidan 15-dekabr gacha kontrakt-to'lovlarining to'lanishini belgilangan tartibda amalgaga oshirilishi ta'minlansin.

4. Barcha fakultet dekanlari va bo'lim boshliqlari 2024-yilgi universitetning Business rejasi(Xarajatlar smetasi)ni shakllantirish bo'yicha e'xtiyojlaridan kelib chiqib, takliflarni 5-dekabr gacha kiritish vazifasi topshirilsin

5. Ushbu qarorning ijro nazorati moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O'.Rashidov zimmasiga yuklatilsin.

---

## V. Turli masalalar

5.1. 1-dekabr – Butunjahon OITSGa qarshi kurashish kuni" va 3-dekabr Xalqaro nogironlar kunini nishonlash to'g'risida

Eshitildi:R.A.Karimov (Yoshlarni ma'naviy yuksalishiga ko'maklashish departamenti boshlig'i) kengash a'zolariga "Butunjahon OITSGa qarshi kurashish kuni" va 3-dekabr Xalqaro nogironlar kunini nishonlash to'g'risida" axborot berdi. (ma'lumotnoma ilova qilinadi)

Yuqoridagi masalalar bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari eshitildi.

Ushbu masala bo'yicha kengash qaror qiladi:

1. Yoshlarni ma'naviy yuksalishiga ko'maklashish departamenti boshlig'i R.Karimovning Butunjahon OITSGa qarshi kurashish kuni" va 3-dekabr Xalqaro nogironlar kunini nishonlash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitet miqyosida mazkur tadbir yuqori darajada tashkil etilib, o'tkazilsin (Ma'sullar: R.Karimov, dekan o'rinbosarlari, tyutorlar)

3. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

5.2. Universitet huzuridagi "Bukhsu Scientific Biotechnology" UK tomonidan bajarilayotgan "Buxoro sharoitida ochiq havzalarda yarim intensiv usulda baliq yetishtirish texnologiyasini joriy etish" loyihasining 2-bosqich hisobotini ko'rib chiqish masalasi muhokamasi

Ma'ruzachi: "Bukhsu Scientific Biotechnology" unitar korxonasi direktori E.B. Jalolov.

**ESHITILDI: E.B. Jalolov (“BukhsU Scientific Biotechnology” unitar korxonasi direktori) –kengash a’zolariga “Buxoro sharoitida ochiq havzalarda yarim intensiv usulda baliq yetishtirish texnologiyasini joriy etish” loyihasi bo’yicha 2-bosqichda amalga oshirilgan ishlar to’g’risida ma’lumot berdi.**

Loyiha doirasida Buxoro viloyati iqlim sharoitidan kelib chiqib, ochiq suv havzalarida xaridorgir bo’lgan baliqlarni tig’izlashtirilgan (yarim intensiv) yetishtirish texnologiyasi joriy qilinmoqda. Baliqlar ularning og’irligi va suvda erigan kislorod miqdori hamda suv temperaturasiga muvofiq maxsus avtokarmushkalar yordamida 24 soat davomida 5 marotaba oziqlantirilmoqda. Baliqlar uchun 10 dan ortiq ingredientlarga boy vitaminlar, probiotiklar, pramikslar, lizin, metionin, kraxmal, ozuqaviy achitqilardan iborat bo’lgan balanslashgan (me’yorlashtirilgan) baliq ozuqalaridan foydalanilmoqda. Oddiy sharoitda 1 ga maydonda maksimum 2 500 donagacha bo’lgan turli turdagi baliqlar 1 yil davomida boqilsa, taklif qilayotgan tig’iz (yarim intensiv) usulda baliq yetishtirishda 1 ga maydonda 6 000 donagacha baliq yetishtirilmoqda. Loyihani amalga oshirish “Buxorobaliq” MChJ ga tegishli bo’lgan 1 ga baliq hovuzini ijaraga olindi, tegishli shartnomalar imzolangan hamda o’rnatilgan tartibda ijara shartnomasi ro’yxatdan o’tkazilgan.

Loyihani amalga oshirish maqsadida 7 nafar tarkibdan iborat loyiha jamoasi shakllantirilganligi ta’kidlandi. Loyihaning umumiy qiymati 565 437,3 ming so’mni tashkil etadi.

Bunda mos ravishda loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarish uchun 1-bosqich (2023-yil may, iyun va iyul oylari) uchun 467 398,0 ming so’m, 2-bosqich (2023-yil avgust, sentyabr va oktyabr oylari) uchun 91 728,9 ming so’m, 3-bosqich (2023-yil noyabr va dekabr oylari) uchun 6 309,5 ming so’m mablag’ ajratilishi belgilangan.

Loyihaning 2-bosqichi yakunlandi. 2-bosqichda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. Yarim intensiv baliqchilik haqida aniq ilmiy asoslangan ma’lumotlar to’plandi.
2. Baliqlarni boqish uchun maxsus me’yorlashtirilgan sifatli ozuqani tanlab va uni olib kelish ishlarini tashkil etildi.
3. Xarajatlar smetasida ko’rsatilgan xom-ashyolar (baliq ozuqasi) xarid qilindi.
4. Baliqlar xalqaro standartlarga muvofiq mavsum davomida boqish tartibi shakllantirildi.
5. Xalqaro standartlarga muvofiq suvning pH ko’rsatkichlari doimiy 7,2 – 7,8 oralikda bo’lishi ta’minlandi.
6. Suvda erigan kislorod miqdori 5 gr/l ko’rsatkichdan ilmiy asoslangan holda 9-11 gr/l ko’rsatkichga ko’tarildi.
7. Suv tarkibidagi kimyoviy moddalar (ammiyak, nitrit, nitrat, fosfat, karbonat anhidrid) doimiy ravishda standartga muvofiq bo’lishi ta’minlandi.
8. Beriladigan maxsus baliq ozuqalari baliqlar tomonidan yoz va kuz oylarida qanchalik darajada o’zlashtirilgani va o’zlashtirilgan ozuqaning qancha ulushi baliq mahsuldorligiga ta’siri o’rganildi.
9. Baliqlarning uzunligi va aylanasi uning og’irligiga bo’lgan nisbati xalqaro standartlar bo’yicha o’rganib borildi.
10. Baliqlarning semizlik koeffisienti Klark va Fulton usullari yordamida nazorat qilindi.
11. Buxoro sharoitida ochiq havzalarda yarim intensiv usulda baliq yetishtirishda baliqlarni kasalliklardan chuqur himoyalash usullari ishlab chiqildi.
12. Mavsum davomida olib borilgan tadqiqotlar natijalari chuqur tahlil qilinib, bugungi kunda loyihaning ilmiy-tadqiqot qismi yakunlandi.
13. Buxoro viloyati sharoitida yarim intensiv usulda baliq yetishtirish texnologiyasi bo’yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.
14. Loyiha natijalari bo’yicha baliqchilik klasterlari, “O’zbekbaliqsanoat” uyushmasi va ularning hududiy boshqarmalariga a’zo bo’lgan baliqchilik xo’jaliklari uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar va takliflar kompleksi ishlab chiqildi.

Loyiha doirasida 2-bosqich uchun shartnomaga asosan 91 728,0 ming so‘m, universitet kengashining 2023-yil 29-avgustdagi qarori bilan 1-bosqichga tejalgan 12 448,14 ming. so‘m jami 104 176,14 ming. so‘m mablag‘ ajratildi. Ajratilgan mablag‘lardan xom-ashyolarni xarid qilishga 72 800,0 ming. so‘m, loyiha bo‘yicha shakllantirilgan ilmiy-ijodiy jamoaning ish haqi va ijtimoiy soliq to‘lovi xarajatlarini amalga oshirishga 18 928,9 ming. so‘m, elektr energiyasi xarajatlariga 5 000,0 ming so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Ikkinchi bosqichda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun jami 96 728,9 ming. so‘m mablag‘ sarflandi. Elektr energiyasi uchun ajratilgan mablag‘lardan 7 447,24 ming. so‘m sarflanmadi.

Umumiy hisobda jami ikki bosqichda loyihani amalga oshirish uchun universitet innovatsion jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 559 126,0 ming. so‘m mablag‘ ajratildi, ushbu mablag‘larning 551 678,76 ming. so‘m qismi loyihani amalga oshirish uchun amalda sarflandi. Loyiha doirasida korxonaga hisob raqamiga o‘tkazilgan 7 447,24 ming. so‘m mablag‘ sarflanmadi.

## 2-BOSQICH BO‘YICHA UMUMIY XARAJATLAR SMETASI HISOBOTI

(ming so‘mda)

T/r.	Xarajat nomi	Rejada	Haqiqatda	Farqi (+ ortiqcha xarajat, -ishlatilmagan mablag‘)	Izoh
1.	Xodimlarga ish haqi va ijtimoiy soliq to‘lovi xarajatlarini amalga oshirish	18 928,9	18 928,9	-	-
2.	Baliq ozuqasi	72 800,0	72 980,2	180,2	Ortiqcha sarflangan mablag‘korxonaning o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirildi
3.	Elektr energiyasi uchun to‘lov	12 448,14	5 000,0	7 448,14	-
	Jami	104 177,04	96 909,1	- 7 267,94	-

Bugungi kunda loyihaning ilmiy-tadqiqot qismi yakunlandi. Loyihaning ilmiy-tadqiqot qismi yakunlanganligi sababli loyihaning kalendar rejasiga muvofiq 3-bosqich uchun ajratilishi rejalashtirilgan 6 309,5 ming. so‘m mablag‘ga ehtiyoj mavjud emas.

Shuningdek, loyihani moliyalashtirish maqsadida 2023-yilning 28-apreliga tuzilgan 2-sonli shartnomaning 3-ilovasi “Buxoro sharoitida ochiq havzalarda yarim intensiv usulda baliq yetishtirish texnologiyasini joriy etish loyihasi ga ajratilgan mablag‘larni qaytarish grafigi” ga asosan 2023-yilning avgust-sentyabr-oktyabr oylarida 101 453,4 ming. so‘m, 2023-yil noyabr-dekabr oylarida 405 813,9 ming so‘m mablag‘larning qaytarilishi belgilangan. Bu mavsumda kuz, qish mavsumi iliq kelganligi sababli, bozorlardagi ulgurji tovar baliq mahsulotining qiymati kilogrami uchun 35-38,0 ming oraliqni tashkil etmoqda. Bir necha yillik bozor tahlillariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, havoning sovib borishi tovar baliq mahsulotlarining narxlarini oshirishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli, yetishtirilgan tovar baliq mahsulotlari bozorga chiqarish 2023-yil dekabr hamda 2024-yil yanvar, fevral oylarida rejalashtirilmoqda.

Loyiha rahbari so‘zining yakunida kengash raisi va a‘zolaridan loyihaning ilmiy-

tadqiqot qismi yakunlanganligi sababli, 3-bosqich uchun ajratiladigan mablag'ga ehtiyoj mavjud emasligini, loyiha natijalari tijoratlashtirishga tayyor ekanligi, loyihaning qaytarish grafigini 2024-yil I chorak yakuniga qadar uzaytirishga ruxsat kerakligini bildirdi.

So'zga chiqqanlarning fikr-mulohazalariga asoslanib, muhokamadagi masala bo'yicha universitet kengashi

Yuqoridagi masalalar bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari eshitildi.

Ushbu masala bo'yicha kengash qaror qiladi:

1. "BukhsU Scientific Biotechnology" unitar korxonasi direktori E.B. Jalolovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Loyiha doirasida universitet innovatsion jamg'armasi mablag'lari hisobidan jami ikki bosqichda loyihani amalga oshirish uchun universitet innovatsion jamg'armasi mablag'lari hisobidan 559 126,0 ming. so'm mablag' ajratilganligi, ushbu mablag'larning 551 678,76 ming. so'm qismi loyihani amalga oshirish uchun amalda sarflanganligi, 7 447,24 ming. so'm mablag' tejalanganligi qayd etilsin.

3. Loyihaning ilmiy-tadqiqot qismi yakunlanganligi qayd etilsin hamda loyiha natijalarini tijoratlashtirish choralari ko'riilsin ("BukhsU Scientific Biotechnology" unitar korxonasi direktori E.B. Jalolov).

4. Bozordagi mavjud holatdan kelib chiqib, loyiha doirasida ajratilgan mablag'larning qaytarish grafigi 2024-yil I chorak yakuniga qadar uzaytirilsin.

5. Loyiha doirasida korxonaga ajratilgan mablag'larning 62 670,0 ming. so'mi asosiy vositalarga, 489 008,76 ming so'mi xom-ashyo va materiallar, ish haqi, elektr energiyasi v.b. xarajatlarga yo'naltirilganligi, shuningdek, loyiha doirasida korxonaga hisob raqamiga o'tkazib berilgan, ammo ishlatilmagan 7 447,24 ming. so'm mablag'ni inobatga olgan holda, qaytarish grafigi bo'yicha 496 456,0 ming. so'm mablag' universitet innovatsion jamg'armasiga qaytarilsin.

6. Loyiha natijasida olingan asosiy ilmiy-amaliy natijalar bo'yicha yakuniy hisobot taqdim etilsin (mas'ul: loyiha rahbari E.B. Jalolov).

7. Ushbu qarorning ijro nazorati ilmiy-ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H. Rasulovga yuklatilsin.

**5.2.1. "BukhsU Scientific Biotechnology" UK tomonidan bajarilayotgan "Buxoro sharoitida ochiq havzalarda yarim intensiv usulda baliq yetishtirish texnologiyasini joriy etish" loyihasi doirasida korxonaga tomonidan xarid qilingan asosiy vositalarni balans qiymatida universitetga topshirish masalasi muhokamasi ESHITILDI: E.B. Jalolov ("BukhsU Scientific Biotechnology" unitar korxonasi direktori) –kengash a'zolariga "Buxoro sharoitida ochiq havzalarda yarim intensiv usulda baliq yetishtirish texnologiyasini joriy etish" loyihasi bo'yicha oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumot berdi.**

Universitetning innovatsion jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan "Buxoro sharoitida ochiq havzalarda yarim intensiv usulda baliq yetishtirish texnologiyasini joriy etish" loyihasi doirasida umumiy qiymati 62 670,0 ming so'mlik asosiy vositalar xarid qilingan. Jumladan:

1. Qiymati 22 800,0 ming so'mga teng bo'lgan 5 dona Aerator;
2. Qiymati 11 970,0 ming so'mga teng bo'lgan 3 dona Avtokormushka;
3. Qiymati 27 300,0 ming so'mga teng bo'lgan 3 dona Videokuzatuv sistemasi.

Bugungi kunda loyihaning ilmiy-tadqiqot qismi yakunlandi. Buxoro viloyati sharoitida yarim intensiv usulda baliq yetishtirish texnologiyasi bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu loyiha natijalari bo'yicha baliqchilik klasterlari, "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasi va ularning

hududiy boshqarmalariga a'zo bo'lgan baliqchilik xo'jaliklari uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar va takliflar kompleksi ishlab chiqildi. Loyiha natijalari tijoratlashtirishga tayyor hisoblanadi. Shu maqsadda, loyiha doirasida xarid qilingan yuqoridagi asosiy vositalarga ehtiyoj yo'qligi sababli ularni "BukhSU Scientific Biotechnology" unitar korxonasi balansidan universitet balansiga o'tkazishni, tegishli kafedralar laboratoriyalari va tadqiqotlari uchun foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

So'zga chiqqanlarning fikr-mulohazalariga asoslanib, muhokamadagi masala bo'yicha universitet kengashi

Yuqoridagi masalalar bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari eshitildi.

Ushbu masala bo'yicha kengash qaror qiladi:

1. "BukhSU Scientific Biotechnology" unitar korxonasi direktori E.B. Jalolovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. "BukhSU Scientific Biotechnology" unitar korxonasi tomonidan universitet innovatsion jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan "Buxoro sharoitida ochiq havzalarda yarim intensiv usulda baliq yetishtirish texnologiyasini joriy etish" loyihasi doirasida xarid qilingan umumiy balans qiymati 62 670,0 ming. so'm bo'lgan:
  - qiymati 22 800,0 ming so'mga teng bo'lgan 5 dona Aerator;
  - qiymati 11 970,0 ming so'mga teng bo'lgan 3 dona Avtokormushka;
  - qiymati 27 300,0 ming so'mga teng bo'lgan 3 dona Videokuzatuv sistemasi universitet balansiga o'tkazilsin (mas'ullar: Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O'.U. Rashidov, "BukhSU Scientific Biotechnology" unitar korxonasi direktori E.B. Jalolov).
3. Ushbu qarorning ijro nazorati Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O'.U. Rashidovga yuklatilsin.

---

**3. Fan doktori (PhD), (DSc) doktorlik dissertatsiya mavzusi va ilmiy maslahatchini tasdiqlash to'g'risida**

**4. Professorlik va dotsentlik unvoniga tavsiya qilish uchun professor - o'qituvchilarning attestatsiya ishi hujjatlarini OAKga yuborish to'g'risida**

---

**5. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-son buyrug'i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berish to'g'risida**

**Eshitildi: R.G.Jumayev (O'quv ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-son buyrug'i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berish to'g'risida**

**Эшитилди.** O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Hay'atining 2020-yil 9-avgustdagi «Yangi 2021-2022 o'quv yiliga tayyorgarlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va dolzarb vazifalar haqida»gi 3/1-son Hay'at qarori hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-son buyrug'i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga

2023-yil 1-dekabrda dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berilgan magistrlar ro'yxati

<b>№</b>	<b>F.I.O.</b>	<b>Magistratura mutaxassisligi, lavozimi</b>	<b>Kafedra nomi</b>	<b>Stav-kasi</b>
1.	Yusupova Nigina Djurayevna	Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar ) bo'yicha mutaxassisligi 2-bosqich magistranti	Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasida o'qituvchisi	0.25

**Kengash raisi mazkur masalani kengash a'zolari hukmiga havola qildi.**

**Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab – quvvatladilar. Hamma rozi, qarshilar va betaraflar yo'q.**

**Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash qaror qiladi:**

1. O'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayevning Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 10-avgustdagi 412-son buyrug'i asosida magistraturaning oxirgi bosqichi talabalariga bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, universitet kengashi qarori asosida bakalavriat talabalariga dars berish uchun 0,5 stavkagacha pedagogik faoliyat olib borishga ruxsat berish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ro'yxatda keltirilgan magistrarga 01.12.2023y. dan tegishli kafedradagi vakant soatlar hisobidan belgilangan tartib asosida dars soatlari ajratilsin.

Mazkur qarorlarning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayev zimmasiga yuklatilsin

---

**6. Magistrant, doktorant (DSc), tayanch doktorant (PhD) va stajyor-tadqiqotchilar ilmiy rahbarlarini Scopus xalqaro ma'lumotlar bazasidagi jurnallarda maqola nashr qilishga jalb qilish to'g'risida.**

**Eshitildi: T.H.Rasulov (Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga "Magistrant, doktorant (DSc), tayanch doktorant (PhD) va stajyor-tadqiqotchilar ilmiy rahbarlarini Scopus xalqaro ma'lumotlar bazasidagi jurnallarda maqola nashr qilishga jalb qilish to'g'risida" axborot bo'ldi.**

"O'zbekiston - 2030" strategiyasida 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlarida 10 ta oliy ta'lim muassasasini dunyoning eng nufuzli "Top-1000" oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish ko'zda tutilgan. Buni amalga oshirishning muhim omillaridan biri esa bu har yili OTM olimlari tomonidan Scopus xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiruvchi jurnallarda kamida 200 ta maqola nashr qilish muhim hisoblanadi. Buxoro davlat universitetiga 2024-yil uchun oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutiga 27 ta ixtisosliklar kesimida 92 nafar (8 nafar doktorantura, 78 nafar tayanch doktorantura, 6 nafar stajyor-tadqiqotchi) talabgorlar qabul qilinishi rejalashtirilgan. Shu bilan bir qatorda, 2023-2024 o'quv yilida ko'p sonli magistrlar qabul qilingan. Olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot natijalarini Scopus yoki Web of Science xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiruvchi jurnallarda nashr qilish amaliyotini yo'lga qo'yish Buxoro davlat universitetining QS va THE kabi xalqaro reytinglarda munosib o'rin egallashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda universitet olimlari tomonidan 2023-yil noyabr holatida 122 ta maqola Scopus xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiruvchi jurnallarda nashr qilingan va indekslangan. Bu natija 2022-yildagiga nisbat 3 barobar ko'p. Biroq 2023-yildan boshlab har yili uzluksiz ravishda kamida 200 tadan maqola nashr qilish ko'zda tutilgan. Shu sababli magistrant, doktorant (DSc), tayanch doktorant (PhD) va stajyor-tadqiqotchilar ilmiy rahbarlari 2024-yildan boshlab har yili bittadan maqolani Scopus xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiruvchi jurnallarda nashr qilish amaliyotini joriy qilishni taklif qilaman. Bunday amaliyot Qozog'istonning Yevroosiyo Milliy Universiteti va Rossiyaning Qozon Federal Universiteti kabi nufuzli OTMlarda muvaffaqiyatli amalga oshirilib kelinmoqda. Xorijiy OTMga qisqa muddatli malaka oshirishga yuborilayotgan hamda kafedra dotsenti va kafedra professori vazifasini bajaruvchi lavozimiga o'tkazilayotgan professor-o'qituvchilarga bunday talabning qo'yilishi faol ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishiga xizmat qilmoqda.

Kafedraning xususiyatidan kelib chiqqan holda Scopus xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiruvchi jurnallarda nashr qilingan 1 ta maqola O'zbekiston Respublikasi OAKning "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan ilmiy jurnallarda nashr qilingan 5 ta maqolaga tenglashtirilishini qayd qilib o'tamiz.

**Yuqoridagi masalalar bo'yicha kengash a'zolarining fikr mulohazalari eshitildi.**

**Ushbu masala bo'yicha kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H. Rasulovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. 2024-yilda qabul qilingan hamda yuqori kurs har bir doktorant (DSc), tayanch doktorant (PhD) va stajyor-tadqiqotchilarning ilmiy rahbarlariga 2024-yildan boshlab har yili Scopus xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiruvchi jurnallarda bitta maqola nashr qilish amaliyoti joriy qilinsin (Muddat: yil davomida, mas'ullar: kafedra mudirlari).
3. 2023-2024 o'quv yilida qabul qilingan har bir magistrantning ilmiy rahbarlariga 2024-yildan boshlab har yili Scopus yoki WoS xalqaro ma'lumotlar bazasiga kiruvchi jurnallarda magistrant bilan hammualliflikda bitta maqola nashr qilish amaliyoti joriy qilinsin (Muddat: yil davomida, mas'ullar: kafedra mudirlari)
4. Kafedralar, mutaxassisliklar va ixtisosliklar xususiyatidan kelib chiqib, umumiy talabga o'zgartirish kiritish bo'yicha takliflar berilsin (kafedra mudirlari) hamda muhokama qilinsin (T.Rasulov boshchiligidagi ishchi guruh). Muhokama natijalari asosida qo'shimcha qaror loyihasi ishlab chiqilib tasdiqqa kiritilsin.
5. Ushbu qarorning ijro nazorati ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor T.H. Rasulov zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash kotibi**



**N.G.Dilova**